

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI: ERKIN JAMIYATNING ASOSI***Baxtiyorova Shaxloxon Doniyor qizi****Toshkent viloyati yuridik texnikumi 2-kurs talabasi**Tel:+998990663882*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasi, inson hayotidagi asosiy roli, jamiyatdagi shaxsiy daxlsizlik bilan bo'qliq muammolar tahlil qilinadi. Maqolada shaxsiy daxlsizlik huquqining kafolatlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: shaxsiy daxlsizlik, erkin hayot, ijtimoiy muammolar, zamonaviy dunyo, ma'lumotlar xavfsizligi, axborot savodxonligi.

Kirish: Shaxsiy daxlsizlik mavzusida eng dolzarb ta'sir ko'rsatuvchi shaxslardan biri Facebook asoschisi Mark Zukerberg shunday fikr bildirgan: "Shaxsiy daxlsizlik eski tushuncha emas, u jamiyat qanday rivojlanayotganiga bog'liq. Biroq biz insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun mas'uliyatni his qilishimiz kerak." Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davrda shaxsiy hayot daxlsizligini taminlash ma'lum darajada qiyinlashdi. Aslida shaxsiy hayot daxlsizlik degani nima? Shaxsiy hayot daxlsizligi – bu har bir insonning o'z shaxsiy ma'lumotlari, hayoti, oilasi va boshqa shaxsiy jihatlari haqida ma'lumotlarni boshqalar aralashuviziz saqlash huquqini anglatadi.

Shaxsiy hayot quyidagi masalalarni o'zida qamrab oladi:

- ❖ Shaxsiy malumotlar (tug'ilgan joy, sana, shaxsiy hujjatlar, sog'liq holati)
- ❖ Oila va yashash sharoiti (oila a'zolari, uy-joy sharoiti, oilaviy munosabatlar)
- ❖ Aloqalar (telefon qo'ng'iroqlari, xatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar)
- ❖ Shaxsiy fazilatlar va e'tiqod (shaxsning ijtimoiy, siyosiy, diniy va boshqa qarashlar)

Hozirgi kunda shaxsiy hayot daxlsizligini taminlar uchun yurtimizda ko'plab huquqiy normalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlangan: "Har bir shaxsning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi bor". Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham har bir shaxsning hayoti va oilaviy siri daxlsiz ekani, shaxsning roziligidan uning shaxsiy hayoti to'g'risidagi malumotlarni to'plash, saqlash, va tarqatish taqiqlanishi, ishbilarmonlik obro'si va moddiy yoki nomoddiy huquqlar himoya qilinishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida esa shaxsiy daxlsizlikka tajovuz qilgan shaxslar javobgarlikka tortilishi belgilangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham shaxsning hayoti daxlsiz ekani, oilasiga,

hayotiga yoki yozishmalariga o'zboshimchalik bilan aralashish mumkin emasligi qayt etilgan.

Lekin hozirgi XXI asr texnalogiya asri. Shaxsiy hayot daxlsizligini taminlash dolzarb masalalardan biridir. Zamонавиу texnalogiyalar va axborot uzatish tezligi oshgani sayin shaxsiy ma'lumotlarning noto'g'ri qo'lanishi ko'paymoqda. Bu esa ko'plab muammolarni yuzaga keltiradi. Misollar orqali ko'rib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda juda ham ko'plab uchrayotgan muammolardan biri, ijtimoiy tarmoqlarga joylangan surat va videolarning keng ommaga tarqalib ketishi. Bu shaxshiy daxlsizlikning qo'pol buzilishidir. Hozirda ko'plab fuqarolar kiberhujumlarga duch kelmoqdalar. Xakerlar shaxslarning internet qidiruv tizimlari, mabil ilovalar va elektron pochtalar orqali ma'lumotlarni toplaydi. Bu orqali shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, moliyaviy zarar yetkazishi va inson sha'niga putur yetishi mumkin. Eng muhim muammolardan biri, sun'iy intellektdan foydalanishdir. Sun'iy intellekt texnologiyalari shaxsning suratidan jonli portret yarata oladi. Bu ma'lumotlar reklamalar, kampaniyalar va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Bu haqida hattoki shaxsning o'zi ham sezmay qolishi mumkin.

Bunday vaziyatlarga shaxslarda huquqiy ong va axborot madaniyatining pastligi sabab bo'lishi mumkin. Jamiyatda bu ikki siklning yetarlicha rivojlanib ulgurmagani natijasida, shaxsiy hayot daxlsizligining qadr-qimmati tushinilmaydi va ehtiyyorsizlik bilan muomila qilinadi. Shuning uchun ham kiberxujumlarning soni kundan kunga ortmoqda. Bunday vaziyatda masullar tomonidan xalq ichida ko'proq targ'ibot ishlarini olib borish, fuqarolarda axborot savodxonligini oshirish, faqat ishonchli va xafsiz ilovalar hamda xizmatlardan foydalanish lozimligi va shaxsiy malumotlar uchun maxfiylikni mustahkamlash kerak ekanligi tushintirishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shaxsiy hayotni himoya qilish zamонавиу dunyoda juda muhim masala hisoblanadi. Shaxsiy hayot daxlsizligiga zamонавиу tahdidlar texnologiyalar rivojlanishi va qonunlarning sekin moslashuvi bilan bog'liq. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat organlari, kompaniyalar va har bir fuqaro birgalikda mas'uliyatni his qilishi lozim. Texnologik himoya vositalarini rivojlantirish, samarali qonunchilikni joriy qilish va jamiyatda xabardorlikni oshirish orqali shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash mumkin. Yuqoridaagi choralarни qo'llash orqali nafaqat shaxsiy hayotingizni, balki oila a'zolaringiz va atrofdagilarni ham turli tahidlardan himoya qilishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 25-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 99-100-moddalar.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 141-modda.